

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019. Fil 05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**ORTIQOVA NARGIZAXON YOQUBJONOVNA**

**ANVAR OBIDJON SHE‘RIYATINING FONOLEKSOPoETIK  
XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in  
philological sciences**

**Ortiqova Nargizaxon Yoqubjonovna**

Anvar Obidjon she'riyatining fonoleksopoetik xususiyatlari.....3

**Ortikova Nargizakhon Yokubjonovna**

Phonolexopoetic Features of Anvar Obidjon's Poetry.....25

**Ортикова Наргизахон Ёкубжоновна**

Фонолексопоэтические особенности поэзии Анвара Обиджона.....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....52

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019. Fil 05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**ORTIQOVA NARGIZAXON YOQUBJONOVNA**

**ANVAR OBIDJON SHE‘RIYATINING FONOLEKSOPoETIK  
XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

Falsafa doctori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3290 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasining www.fdu.uz hamda "ZiyoNet" axborot ta'lim portalining www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Hakimov Muhammad Xo'jaxonovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Usmonova Xurinisho Sharapovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Hamroyeva Hulkar Hamraliyevna**  
filologiya fanlari doktori(DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "27" aprel soat 11-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (339 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "15" aprel kuni tarqatildi.  
(2024-yil "15" aprel dagi 4 raqamli reestr bayonnomasi).



**Sh.M.Iskandarova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**M.T.Zokirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

**A.Mamajonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida tilning ekspressiv vazifasi masalasini o'rganishda, millatning tafakkuri va milliy ruhiyatini aks ettiruvchi badiiy adabiyot tili keng tadqiq etilmoqda. Lingvopoetik tadqiqotlarning vazifasi badiiy nutqdagi poetiklikni ifodalayotgan lingvistik vositalarni aniqlash va tadqiq etishdan iborat bo'lmog'i lozim. Shu bois, milliy tilning rivoji uchun tajribali ijodkorlar yaratgan badiiy asarlarni lingvopoetika nuqtayi nazaridan o'rganish amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida falsafiy, adabiy va lingvistik qarashlarni o'z ichiga oluvchi tilshunoslikning antropotsentrik yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvopoetika sohasi yuzaga kelgan. Badiiy asarning lingvopoetik tahlili tilning nazariy tomonlari, ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatining in'ikosi ekanini bir butun holda tasavvur etishimizga imkon beradi. Chunki lingvopoetika o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra filologiya sohasi tarmoqlarini o'zida mujassamlashtirishga, uning bir butunligini ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun zamonaviy tilshunoslikda badiiy adabiyot tilida poetik vazifa olgan lingvistik birliklarni tadqiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasining rivojlanishida ko'plab olimlarning xizmatlari katta bo'ldi. Ularning tadqiqot ishlarida badiiy asar tili o'ziga xos uslubiy, badiiy-estetik jihatlari, ijodkorning so'zlarni qo'llash mahorati, uning individual uslubi, adabiy tilga bo'lgan munosabati, okkazionalizmlar yaratish kabi usullari nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Xalqning millat sifatida shakllanishi til vositasida ro'y berar ekan, badiiy adabiyot tilining tadqiqi adabiy til rivoji uchun xizmat qiladi. "O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash"<sup>1</sup> masalalari zamonaviy tilshunoslik zimmasiga katta mas'uliyat yuklamoqda. Turli poetik dalillar asosida bugungi o'zbek she'riyatida lisoniy omillarning voqelashuvi, mazmundorlik va badiiylilikni ta'minlashda ularning alohida o'rnini ilmiy-tanqidiy tahlil qilish hamda baholash zarurdir. Xususan, o'zbek milliy adabiyotida o'z o'rnini va ovozigacha ega bo'lgan O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning so'z qo'llash mahorati, uning o'zigagina xos bo'lgan ifoda uslubi, badiiyatini ta'minlovchi lingvopoetik vositalar shu kungacha qadar lingvistik jihatdan alohida tadqiq etilmaganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Zero, yozuvchi va shoirlarning ijodi orqali badiiy til milliylikka xos ifoda vositalari bilan boyiydi. Umummilliy tilning rivoji uchun ijodkorlar yaratgan betakror asarlarni lingvopoetika nuqtayi nazaridan o'rganish dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5058351>

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori hamda ushbu faoliyat doirasidagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Badiiy asar tili, adiblar mahorati va she’riy nutqning ekspressivligini ta’minlovchi turli lingvistik omillar, til birliklarining poetik imkoniyatlarini tahlil qilish muammosi azaldan tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Fanlar kesimida antropotsentrik tamoyillar talqini lingvopoetik tahlil doirasini ham kengaytirib yubordi: til→ijodkor→asar→adresat munosabatining lingvopoetik tabiatini o‘rganish jarayonida lingvopoetika yo‘nalishi lingvopragmatika hamda lingvokulturologiya kabi yondosh sohalar bilan hamkorlik qiladi.

Hozirga qadar dunyo tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalariga doir ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Jumladan, g‘arb va rus tilshunosligida A.Xolodovich, V.Vinogradov, G.Vinokur, B.Larin, Y.Stepanova, V.Jirmunskiy, D.Shmelov, V.Grigorev, L.Novikov, Z.Hovanskaya, I.Galperin, V.Zadornova, V.Kuxarenko, M.Gorelikova, D.Magomedova, N.Shanskiy, A.Lipgart, M.Davidov, Y.Yakovleva, N.Kupina, Y.Marinova<sup>2</sup> kabi olimlar va o‘zbek tilshunosligida

---

<sup>2</sup>Холодович А. К вопросу о лингвистическом методе в поэтике. // К борьбе за марксизм в литературной науке. – Л.: Прибой, 1930; Виноградов В.В. О языке художественной литературе. – М., 1956; Винокур Г.О. Филологические исследования: лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1970; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1974; Степанова Ю.С. Основы общего языкознания. - М.,1975;

X.Doniyorov, S.Mirzayev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoyev, H.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Yo'ldoshev, E.Qilichev, B.Umrqulov, I.Mirzayev, S.Karimov, G.Yaxshiyeva, M.Yaqubbekova, M.Yo'ldoshev, D.Andaniyozova<sup>3</sup> va boshqa ko'plab olimlarning tadqiqotlarida lingvopoetikaning nazariy masalalari o'rganilgan. Shuningdek, H.Ahmedov, G.Rihsiyeva, G.Keldiyorova, G.Muhammadjonova, D.Shadiyeva, N.To'lanova, S.Normamatov, G.Jumanazarova, O.Tursunova, M.Qurbonova, M.Abdupattoyev, D.Nazarova, T.Butunbayeva<sup>4</sup> kabi tadqiqotchilarning she'riy asarlar poetikasi borasidagi izlanishlari diqqatga sazovor.

Xususan, Anvar Obidjon she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari, shoirning so'zdan foydalanish mahorati borasida ham bir qator ishlar qilingan.<sup>5</sup> Ularda muallif

---

Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977; Шмелов Д.Н. Русский язык в его функциональных разновидностях. – М.: Наука, 1977; Григорьев В.П. Поэтика слова. – М.: Наука, 1979; Новиков Л.А. Лингвистическое толкование художественного текста. – М.: Русский язык, 1979; Хованская З.И. Анализ литературного произведения в современной французской филологии. – М.: Высшая школа, 1980; Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М., 1981; Задорнова В.Я. Восприятие и интерпретация художественного текста. – М.: Высшая школа, 1984; Григорьев В.П. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – М.: Наука, 1985; Якобсон Р. Работы по поэтике. – М.: Прогресс, 1987; Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1988; Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – М.: Русский язык, 1989; Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста. – Л.: Просвещение, 1990; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое сопоставление: теория и метод. – М., 1994; Давыдов М.В., Яковлева Е.В. Основы филологического чтения: Современный английский язык. – М.: Диалог-МГУ, 1997; Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М., 1999; Купина Н.А., Николина Н.А. Филологический анализ художественного текста. – М.: УРСС, 2003; Маринова Е.В. Иноязычная лексика современного русского языка: учеб. пособие. – М.: Флинта, 2013.

<sup>3</sup>Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент, 1962; Самадов Қ. Ойбек – сўз санъаткори. – Тошкент, 1965; Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1975; Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, 1981; Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 1982; Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982; Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, Фан, 1990; Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. – Тошкент, 1992; Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Филол. фан. док...дисс. – Тошкент, 1993; Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. – Тошкент: Фан, 1996; Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент, 2005; Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006; Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. – Тошкент: Турон замин-зиё, 2016.

<sup>4</sup>Аҳмедов Х. Ўзбек адабиётида насрий шеър. Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 1995; Рихсиева Г. Шеърятдаги гапларнинг актуал бўлинишида анафоралар ўрни. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1999; Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза (Э. Воҳидов шеърятти мисолида). Филол. фанл. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи. Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Шодиева Д.Ш. Муҳаммад Юсуф шеърятти лингвопоэтикаси. Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Тўланова Н. Тўқсонинчи йиллар ўзбек шеърятти тилидаги бадиий санъатларнинг лисоний-услубий тахлили. Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърятти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари. Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик тахлил). Филол.фан. д-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Турсунова О. А. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари. Филол.фан. бўйича фалсафа док...дисс. – Фарғона, 2019; Қурбонова М.О. Мустақиллик даври дostonлари лингвопоэтикаси. Филол.фан. б.фалс. док...дисс. автореф. – Фарғона, 2019; Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Филол.фан. д-ри...дисс. автореф. – Фарғона, 2021; Назарова Д.И. Жамол Камол шеърятти поэтикаси. Филол.фан. б.фалс. док... дисс. автореф. – Бухоро, 2021; Бутунбаева Т.А. Замонавий назмий дискурда индивидуалликни таъминловчи лисоний воситалар (Аъзам Ўқтам ва Минҳожиддин Мирзо шеърятти мисолида). Филол.фан. б.фалс. док... дисс. автореф. – Самарқанд, 2021.

<sup>5</sup>Йўлчиев Қ. Типологик ўхшашликлар: бирлик ва учлик. – Тошкент: Туронзамин зиё, 2016; Садинова Н.С. Бадиий матнларда контрастнинг лингвопроагматик хусусиятлари. (Анвар Обиджон, Усмон Азим, Аъзам Ўқтам асарлари мисолида). Филол.фан. б.фалс. док...дисс. автореф. – Тошкент, 2021; Маматалимов З. Анвар

she'riyati, koproq bolalar uchun mo'ljallangan asarlari tilining o'ziga xos poetik xususiyatlari tahlil qilingan. Ijodkor iste'dodini belgilovchi lisoniy xususiyatlar she'riy nutqda badiiy-estetik vazifa olishi kabi masalalar asosan adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Shoir ijodining lingvistik aspektidagi o'ziga xos individual mahorat sirlarini ochib berish tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Zamonaviy tilshunoslik muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Anvar Obidjon she'riyati tilining badiiyatini ta'minlovchi fonetik va leksik vositalarni poetik jihatdan tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

badiiy asarlar tilining o'zbek tilshunosligida o'rganilish holatini baholagan holda ularni lingvopoetik tadqiqot doirasida umumlashtirish;

o'zbek tilidagi she'riy matnlar lingvopoetikasi bo'yicha bajarilgan tadqiqotlarni tahlil qilish;

muallif she'riyati tilidagi badiiylikni ta'minlovchi, poetik vazifa oluvchi fonetik va leksik vositalarni lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash;

muallif she'riyati misolida qo'llanilishi cheklangan leksik qatlamning poetik imkoniyatlarini ochib berish;

she'riy nutq badiiyligini ta'minlaydigan fonetik hodisalarning ekspressivlik hamda ijodkor maqsadini ifodalashdagi o'rnini ko'rsatish;

muallifning fonetik va leksik vositalarning lingvopoetik imkoniyatlaridan foydalanishdagi o'ziga xos uslubiy mahoratini aniqlash orqali o'zbek tilining badiiylik xususiyatlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Anvar Obidjonning "Ona yer" (1974), "Baxromning hikoyalari" (1984), "Bezgakshamol" (1985), "Juda qiziq voqea" (1987), "Bezgakshamol-2" (2003), "Tanlangan asarlar: 2-kitob" (2014), "Saylanma: She'rlar" (2017), "G'alati maktublar" (2017), "Polosonlik polaponlar" (2018), "Kichkintoylar quvonchi" (2019) kabi she'riy to'plamlari hamda "Qorinbotir" (1990) she'riy dramasi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Anvar Obidjon she'riyatining fonopoetik va leksopoetik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda tilshunoslikning sistem-struktur, semantik-stilistik, dialektik, komponent tahlil, qiyoslash, tavsiflash, pragmalingvistik va lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

---

Обиджон шеъриятининг бадий-маърифий хусусиятлари. Филол.фан. б.фалс. док...дисс. автореф. – Тошкент, 2021; Ашурова З.Ш. Замонавий болалар шеъриятининг лингвопрагматик тадқиқи. Филол. фан. б.фалс. док...дисс. – Қўқон, 2022; Юнусова Х.Р. Визуал поэтик матнларнинг прагма-когнитив тадқиқи. Филол.фан. б.фалс. док... дисс. – Фарғона, 2022; Солижонов Й. Анвар Обиджон поэтик олами: Монография.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2022; Ҳамроева Ҳ. Болалар адабиётининг реформатори. – Фарғона: Классик, 2023.

A.Obidjon she'riy asarlari asosida poetik nutq badiiyligini ta'minlaydigan tovushlarni birdan ortiq qo'llash, tovush tushirish, orttirish, o'zgartirish, almashtirish, tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish kabi fonetik hodisalarning ekspressivlik hamda ijodkor maqsadini ifodalashdagi o'rni asoslangan;

tovush takroriga asoslangan tasviriy vositalar alliteratsiya, assonans hamda qofiya tarkibidagi tovush takrorlari fonopoetik vosita sifatida expressivlik ifodalashi A.Obidjon she'riy asarlari misolida dalillangan;

A.Obidjon she'riy asarlarida poetik maqsad bilan qo'llangan zid ma'noli, ma'nodosh va shakldosh so'z, iboralar aniqlangan va ularning she'riy nutqda leksopoetik vosita sifatida expressivlik ifodalashi ochib berilgan.

A.Obidjon she'rlarida badiiyligni ta'minlaydigan varvarizm va disfemizm kabi leksopoetik vositalar aniqlangan va ular vositasida she'riy nutqda hajviy, satirik ma'no ifodalanishi isbotlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqotdan kelib chiqadigan ilmiy xulosalar o'zbek tilshunosligida qaror topayotgan lingvopoetikaning shakllanishida, o'zbek tili stilistikasi, matn lingvistikasi va nutq madaniyati bo'yicha qo'llanma va darsliklar yaratishda material sifatida xizmat qilishi asoslangan;

fonetik va leksik vositalarning badiiy matnda bajaradigan poetik vazifalari bo'yicha olingan natijalar va xulosalar, dissertatsiyaga manba bo'lgan materiallar zamonaviy o'zbek tilshunosligi, xususan, o'zbek lingvopoetikasi uchun muhim zaruriy, ilmiy ma'lumot berishi, lingvopoetika bo'yicha tadqiqotlar yaratishda manba bo'lib xizmat qilishi, leksikologiya, semasiologiya, matn tilshunosligi, uslubshunoslik fanlarini o'qitishda amaliy jihatdan yordam berishi ko'rsatilgan.

oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida maxsus kurs sifatida o'qitish tavsiya etilgan;

shuningdek, o'zbek she'riyati tilining jamiyat rivoji, undagi o'zgarishlarga bog'liqlik xususiyatlari haqidagi mulohazalarni tarix, madaniyatshunoslik, estetika hamda ma'naviyat fanlari bo'yicha darsliklar yaratishda ham qo'llash tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, izlanish yuzasidan chiqarilgan xulosalar uning metodologiyasi va metodikasi bilan uyg'unligi, soha bo'yicha qo'yilayotgan muammoning dolzarbligi, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, lisoniy dalillar talqinining nazariy asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari qiyosiy-nazariy usullar yordamida yechilganligi va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya natijalari, badiiy asarlarni lingvopoetik tahlil etish, adiblar mahoratini o'rganish, tilimiz rivojida ularning hissasini belgilash maqsadida olib boriladigan barcha tadqiqotlar kabi tilshunosligimiz taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi; badiiy asarlar tili, badiiy matnlarning lingvopoetik tadqiqi o'zbek tilshunosligida dolzarb hisoblangan psixolingvistika, pragmalolingvistika va

stilistika singari sohalar doirasidagi mavjud ilmiy ma'lumotlarni kengaytirib mukammallashtiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot ishidan oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonlarida lingvopoetika, lingvokulturologiya, semasiologiya va kognitiv tilshunoslik kabi fanlar bo'yicha ma'ruza, seminar, maxsus kurslar tashkil etish, dissertatsiyalar, monografiyalar, darslik va o'quv qo'llanmalari, izohli, ensiklopedik lug'atlar yaratishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Anvar Obidjonning she'riy asarlari lingvopoetik tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

A.Obidjon she'riy asarlarida poetik maqsad bilan qo'llangan zid ma'noli, ma'nodosh va shakldosh so'z, iboralar va ularning she'riy nutqda o'ziga xos tarzda ifodalanishiga oid xulosalardan 2020-2021-yillarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini yaratish" mavzusidagi FZ-2019081663 raqamli ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan. (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2023-yil 7-iyundagi 01/04-52-son ma'lumotnomasi) Natijada loyiha doirasidagi veb-sayt ilmiy xulosalar bilan boyigan;

A.Obidjon she'riy asarlari asosida dalillangan tovush takroriga asoslangan tasviriy vositalar alliteratsiya, assonans hamda qofiya tarkibidagi tovush takrorlari fonopoetik vosita sifatida expressivlik ifodalashiga doir ilmiy natijalaridan 2022-2023-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanildi. Muallif bilan suhbatlar uyushtirilgan, ilmiy qarashlar va xulosalar ushbu eshittirishlar mazmuni boyitishga xizmat qilgan. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat unitar korxonasi 2023-yil 10-iyundagi OZ-R-1-78-son ma'lumotnomasi). Natijada Anvar Obidjon tilining individual xususiyatlari, she'riy matnlarda qollangan fonetik va leksik birliklarning poetik imkoniyatlariga oid ilmiy-amaliy qarashlar asosida tayyorlangan radiodasturlarning mazmunan mukammallashuviga erishilgan;

A.Obidjon she'rlarida aniqlangan badiiylikni ta'minlaydigan varvarizm va disfemizm kabi leksopoetik vositalar va ular vositasida she'riy nutqda hajviy, satirik ma'no ifodalanishi; Anvar Obidjon she'riyati misolida o'zbek she'riyati tilining o'ziga xos xususiyatlari va ijodkorning individual uslubiy mahorati kabi ilmiy natijalaridan 2023-yilda Farg'ona viloyat teleradiokompaniyasining "Xayrli tun", "Adabiy muhit", "Ma'naviyat sarchashmasi" ko'rsatuvlari hamda "Yoshlar kundaligi" radioeshittirishlarida foydalanildi. Shuningdek, ushbu ko'rsatuv va eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallar dissertant tomonidan tavsiya etilgan maqolalar bilan mazmunan kengaytirildi. Viloyat teleradiokompaniyasi ko'rsatuvlarida ushbu dissertatsiya natijalaridan foydalanish o'zining ijobiy samaralarini berdi. (Farg'ona viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 22-iyundagi 01-04/133-son ma'lumotnomasi) Natijada ko'rsatuv va eshittirishlar

uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilib, ilmiy dalillar bilan boyitildi;

A.Obidjon she'riy asarlari asosida poetik nutq badiiyligini ta'minlaydigan tovushlarni birdan ortiq qo'llash, tovush tushirish, orttirish, o'zgartirish, almashtirish, tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish kabi fonetik hodisalarning ekspressivlik hamda ijodkor maqsadini ifodalashdagi o'rni bo'yicha ilmiy qarashlari va xulosalaridan Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida o'qitiladigan umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun yaratilgan "O'zbek tili" o'quv darsliklarida 2022-2023-yillarda Qozog'iston Respublikasi o'zbeklari "Do'stlik" hamjamiyati qoshidagi "Ijodkor" adabiy birlashmasining targ'ibot faoliyatida, xususan, birlashma tomonidan o'tkazilgan ilmiy-nazariy konferensiyalarda, o'zbek va qozoq olimlarining ilmiy-ijodiy hamkorligiga bag'ishlangan ilmiy-adabiy tadbirlarda foydalanilgan. (Qozog'iston Respublikasi o'zbeklari etnomadaniy birlashmalari "Do'stlik" jamiyatining №41 2023-yil 12-iyuldagi ma'lumotnomasi) Natijada mazkur darslikning yangi ilmiy xulosalar va tahlillar bilan boyishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, ulardan 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning umumiy hajmi 156 sahifani tashkil etadi. Tadqiqot ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Lingvopoetik paradigmaning shakllanish tarixi**" deb nomlangan birinchi bobida tilshunoslikning yangi yo'nalish bo'lgan lingvopoetika poetika va lingvistika uyg'unligida shakllangan badiiy asarlar, qolaversa, boshqa uslublarga oid matnlar tilining uslubiy va poetik xususiyatlarini, uning tuzilishi va mazmunini badiiylilik jihatidan tadqiq etuvchi soha ekanligi xususida fikr yuritiladi.

Bobning birinchi fasli "Lingvopoetika umumfilologik yo'nalish sifatida" deb nomlanadi. Tilshunoslik mustaqil fan sifatida ajralib chiqmagan davrlarda unga tegishli bo'lgan muammolar falsafa fani tarkibida o'rganilgan. Poetikaga esa faqatgina she'r, adabiyot ilmi sifatidagina qaralgan. Poetik ma'noni so'z, umuman, til birliklari vositasida anglashilishi haqidagi dastlabki g'oyalar antik davr olimlari

qarashlarida shakllanib tilshunoslik va falsafa mustaqil, ayni paytda aloqador fanlar sifatida o'rganilgan. Mustaqil fan sifatida XIX asrga kelib ajralib chiqqan tilshunoslik falsafa, psixologiya, mantiq fanlari bilan uzviy aloqadorlikni saqlab qoldi. Hozirga qadar dunyo tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalariga doir ko'plab izlanishlar olib borilgan. Jumladan, g'arb va rus tilshunosligida A.Xolodovich, V.Vinogradov, G.O.Vinokur, B.A.Larin, Y.S.Stepanova, V.M.Jirmunskiy, V.P.Grigorev, V.Y.Zadornova, V.A.Kuxarenko, M.I.Gorelikova, A.A.Lipgart, N.A.Kupina va boshqa ko'plab olimlarning tadqiqotlarida lingvopoetikaning nazariy masalalari tadqiq qilingan. Dastlab Arastu va boshqa antik olimlar qarashlarida yaxlit bir soha tarkibida o'rganilgan mazkur masalalar keyinchalik uch yo'nalish – til, adabiyot va falsafaga ajralib, alohida tahlil va tadqiq etildi. Keyinchalik, ushbu uch soha vakillarining o'zaro kechgan bahs-munozaralari asnosida barcha sohalarda keng ko'lamlil tadqiqotlar amalga oshirildi. Nihoyat, falsafiy, badiiy va lingvistik qarashlarni o'z ichiga oluvchi tilshunoslikning antropotsentrik yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvopoetika sohasi mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida vujudga keldi. Badiiy asarning lingvopoetik tahlili tilning nazariy tomonlari, ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatining in'ikosi ekanini bir butun holda tasavvur etishimizga imkon beradi. Lingvopoetika o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra filologiya sohasi tarmoqlarini o'zida mujassamlashtirishga, uning bir butunligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Lingvopoetika zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik nazariyaga asoslangan yo'nalishlaridan biri bo'lib, poetika va lingvistikaning obyekt, vazifasi doirasiga kiradigan umumfilologik jihatlarini o'rganadi.

Bobning ikkinchi fasli “Lingvopoetik ilmiy paradigma talqini” deb nomlanadi. O'zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasi rivojida S.Mirzayev, Q.Samadov, X.Doniyorov, I.Qo'chqortoyev, B.Umurqulov, H.Abdurahmonov, I.Mirzayev, N.Mahmudov, M.Yo'ldoshev, D.Andaniyozova kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi. Ularning tadqiqot ishlarida badiiy asar tili o'ziga xos uslubiy, badiiy-estetik jihatlari, ijodkorning so'zlarni qollash mahorati, uning individual uslubi, adabiy tilga bo'lgan munosabati, okkazionalizmlar yaratish kabi usullari nuqtayi nazaridan tahlil etildi.

O'zbek tilshunosligida lingvopoetika mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida ajratilmagan paytlarda ham sohaga aloqador ko'plab ilmiy ishlar qilingan, biroq ularning aksariyati aynan bir ijodkorning tili va uslubiga xos tahlil xarakterida olib borilgan tadqiqotlar sanaladi<sup>6</sup>; badiiy asarlar hamda badiiylikni ta'minlovchi til

---

<sup>6</sup>Шомаксудов А. Ўзбек адабий тилининг ривожланишида Ҳамза ижодининг аҳамияти. // Шарқ юлдузи, 1954. №3; Шоабдурахмонов Ш. Ойбек романларининг тили ва стили.// Шарқ юлдузи, 1955. №10; Тўрабекова С. Ғафур Ғулум поэмаларининг тили ва стили ҳақида. Филол.фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1961; Чориев Б. Ғафур Ғулум поэзияси лексикасининг айрим масалалари. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1972; Самадов Қ. Ойбек-сўз санъаткори. – Тошкент, 1965; Самадов Қ. Ойбек тил маҳоратининг баъзи масалалари. – Тошкент, 1967; Қўчқортоев И. Бадий сўз устаси. – Тошкент, 1967; Султонова М. Абдулла Қаҳҳор услуби. – Тошкент, 1967; Ёриев Б. Язык поэзии М.Шайхзаде. Автореф. дисс...канд. филол.наук. – Ташкент, 1979; Махматмуродов Ш. Язык «Дивана» Ҳамза Ҳакимзаде Ниязи. Дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1981; Насриддинов Ф. Адибнинг йўли. Абдулла Қодирий маҳорати. – Тошкент, 1971; Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Аҳмада: НДА. – Тошкент, 1979; Турдалиев Б. Ҳамза ва ўзбек адабий тили. – Т.: Фан, 1981; Алиев А.Ю. Абдулла Қодирий «Обид кетмон» қиссасининг баъзи тил хусусиятлари. // Ўзбек

бирliklari, ularning yozuvchi yoki shoir maqsadini ifodalashdagi o‘rni lingvopoetik tadqiq etilgan;<sup>7</sup> tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan badiiy uslubga tegishli lingvistik birliklar tadqiq etilgan;<sup>8</sup> badiiy adabiyot tili sof lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan<sup>9</sup> ilmiy ishlar mavjud.

Badiiy asarni lingvopoetik jihatdan tadqiq etishda til birliklari bajarayotgan poetik vazifasiga ko‘ra tahlil etilishi, yetuk badiiyat namunasi sanaladigan badiiy

---

тилшунослигининг актуал масалалари. – Тошкент, 1985; Тўйчиев М. Шухрат прозасининг тили. – Тошкент, 1986; Чориев Б. Ғафур Ғулом шеърлати тили. – Тошкент, 1990; Бўронов М. Ҳамза асарлари тилининг баъзи лексик-морфологик хусусиятлари. – Тошкент, 1991; Бобониёзов А.Й. Абдулла Қодирийнинг «Ўтган кунлар» романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти. Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 1995; Нормуродов Р.У. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи. Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Самарқанд, 2004; Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2007; Жалалова Л. Абдулла Қодирийнинг «Ўтган кунлар» романининг лингвистик тадқиқи. Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Ҳасанов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2010; Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърлати лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

<sup>7</sup>Яқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвopoэтик хусусиятлари. – Тошкент, 2005; Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвopoэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Филол. фан. д-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Умрқулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари. Филол.фан. д-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 2020; Абдупаттoев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Филол. фан. д-ри...дисс. автореф. – Фарғона, 2021; Эгамов Х. Шеърлий асар тилини ўрганиш. – Тошкент, 1973; Умрқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, 1990; Мирзаев И. Проблемы лингвopoэтической интерпретации стихотворного текста. – Тошкент, 1992; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати. Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Муҳаммаджoнова Г. 80-йиллар oхири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеърлатининг лингвopoэтик тадқиқи. Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Т., 2004; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърлати лингвopoэтикаси. – Т., 2007; Б.Ўринбоев Ғафур Ғулом асарларининг лингвopoэтикаси. – Тошкент, 2008; Йўлдашев М. Бадиий матн лингвopoэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008; Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвopoэтик тадқиқи. – Тошкент, 2009; Анданиязова Д. Ономастик бирликларнинг лингвopoэтик тадқиқи. – Тошкент: Турон замин-зиё, 2016; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвopoэтикаси. Филол.фан. б.фалс. док...дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Турсунова О. А. Ўзбек бадиий нутқининг фонопоэтик тадқиқи (шеърлий асарлар мисолида). Филол.фан. б.фалс. док...дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Қурбонова М.О. Мустақиллик даври дostonлари лингвopoэтикаси. Филол.фан. б.фалс. док...дисс. автореф. – Фарғона, 2019; Жамолитдинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвopoэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари.– Тошкент, 2021; Саминов А.И. Оксоморон бадиий нутқда лингвopoэтик восита сифатида.Филол.фан. б.фалс. док...дисс. автореф. – Фарғона, 2022.

<sup>8</sup>Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент, 1962; Самадов Қ. Ойбек – сўз санъаткори. – Тошкент, 1965; Кўчкортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1975; Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, 1981; Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 1982; Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982; Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, Фан, 1990; Мирзаев И. Проблемы лингвopoэтической интерпретации стихотворного текста. – Тошкент, 1992; Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Филол. фан. док...дисс. – Тошкент, 1993; Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. – Тошкент: Фан, 1996; Яқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвopoэтик хусусиятлари. – Тошкент, 2005; Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвopoэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006; Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвopoэтикаси. – Тошкент: Турон замин-зиё, 2016.

<sup>9</sup>Ахмедов А. Лексика поэзии Фурката. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1960; Шомаксудов А. Язык сатиры Муками (Лексика и фразеология). Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Тошкент, 1956; Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвopoэтическое исследование языка “Лисан ат-тайр” Алишера Навои. Автореф. дисс...канд. филол.наук. – Ташкент, 1982; Бафoев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984; Усманов Х. Лингвостилистические особенности языка Лютфи. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Тошкент, 1986; Рустамов М. Гадоий девони тилининг лексикаси. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1992; Тожибоев М. Муҳаммад Шайбоний девони тилининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол.фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.

ijod namunalari lingvopoetik xususiyatlari nuqtayi nazaridan tahlil etilib o'rganilishi hamda bu yo'nalishdagi tahlil va talqinlarni tizimli ravishda olib borish bugungi tadqiqotchilar oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Lingvopoetik tadqiqotlarning vazifasi badiiy tildagi poetiklikni ifodalayotgan lingvistik vositalarni aniqlash va tadqiq etishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Bobning uchinchi fasli "Badiiy matn va lingvopoetik tahlil tamoyillari" deb nomlanadi. Badiiy matn ijodkor (muallif) ning dunyoni, voqelikni obrazli-estetik idrok qilishi natijasida yaratiladi. Uning yaratilishi va yuzaga kelgan badiiy butunlikning o'quvchi tomonidan tushunib, idrok etilishi murakkab estetik faoliyat hisoblanadi. Badiiy matnni "...lingvopoetik tahlil etishning aniq bir modeli yaratilgan emas. Tilshunoslik va til ta'limi amaliyotida fonetik tahlil, morfologik tahlil kabi tekshirishning aniq tamoyil va usullari turg'unlashgan. Ammo lingvopoetikada hali bu darajaga kelingan emas"<sup>10</sup>. Badiiy adabiyot tilida esa "...emotsionallik, serqatlamlilik, obrazlilik, musiqiylik, serbo'yoqlik, ixchamlik"<sup>11</sup> mavjuddir. Bu kabi xususiyatlariga ko'ra badiiy til lingvopoetik tadqiqotlar manbaidir. Lingvopoetik tadqiq etishda esa aniq tahlil tamoyillariga rioya qilish zarurdir.

Tilning fonetik-fonologik, morfemik, leksik, morfologik, sintaktik va supersintaktik sath birliklari badiiylikni ifodalashda faol ishtirok eta oladi. Albatta, bularning hammasi ijodkorning badiiy niyatiga bog'liq bo'lib, ijodkor o'z mahorati darajasida yaratgan ma'lum bir badiiy matn ichida ushbu til birliklaridan ba'zilari alohida vazifa va bo'yoqqa ega bo'ladi.

Keyingi yillarda jahon va o'zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasining tadqiqot manbayi, lingvopoetik tahlil tamoyillari tizimi qanday bo'lishi kerakligi haqida ilgari surilgan fikr va yondashuvlar tasnif etildi. Ushbu lingvopoetik tadqiqotlardagi tahlil va talqinlar va nazariy ma'lumotlarga asoslanib tadqiqotning obykti sifatida tanlangan Anvar Obidjon she'riyatining fonopoetik va leksopoetik xususiyatlari tadqiqida ekspressivlikka dahldor sanalgan fonetik vositalar, tovush takroriga asoslangan tasviriy vositalar, so'z shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (antonim, sinonim, omonim, o'zakdosh so'z va iboralar), qo'llanish doirasi chegaralangan leksika (varvarizm, disfemizm), emotsional-ekspressiv bo'yoqli leksik birliklar, o'zlashmagan so'zlar qatlamining ishtiroki va ularning she'riy matnda qay darajada poetizmga aylana olganligi kabi masalalar tahlil etiladi. Lingvopoetik tahlillar uchun 1) shakl va mazmun birligi asosida yondashuv; 2) makon va zamon birligi asosida yondashuv; 3) umumxalq tili va adabiy til munosabati asosidagi yondashuv; 4) badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida qarashga asoslangan yondashuv; 5) badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash; 6) badiiy matndagi eksplitsitlik va imlitsitlik nisbatini aniqlash; 7) badiiy matnda intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy xususiyatlarini aniqlash kabi tamoyillar asos sifatida olindi.

---

<sup>10</sup> Ёўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, Фан, 2008. - Б.148.

<sup>11</sup> Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент, 1980. Б.250.

Dissertatsiyaning “Anvar Obidjon she’riyatining fonopoetik xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi bobida A.Obidjonning she’riy asarlari matnida poetik vazifa bilan namoyon bo‘layotgan fonetik birliklar hamda badiiy tasvir vositalarining yuzaga kelishiga xizmat qiladigan tovush hodisalari tahlilga tortilgan.

Bobning birinchi fasli “Tovushlarning birdan ortiq qo‘llanilishiga oid poetik xususiyatlar” deb nomlanadi. Badiiy til va undagi barcha lingvistik birliklar ifodalayotgan poetik vazifalariga ko‘ra lingvopoetikaning o‘rganish obyekti bo‘la oladi. Bu borada M.Yo‘ldoshev shunday yozadi: “...fonopoetika alohida yo‘nalish (daraja) sifatida qaraladi, uning xususiyatlari va tadqiqot obyektini aniqlash muhim ahamiyatga ega”<sup>12</sup>. Darhaqiqat, fonopoetika bugungi kunda alohida tahlil va tadqiq qilinishi zarur bo‘lgan sohalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Fonetik hodisalarga asoslangan tasviriy vositalar – alliteratsiya, assonans, geminatsiya hamda tovush tushirish, tovush orttirish, tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etish kabi fonetik hodisalar, ularning badiiy matn kontekstida ifoda, emotsional-ekspressivlik ulashishi singari masalalar hamda qofiyalanishning poetik tomonlari asosan fonostilistika va fonosemantikaga doir tadqiqotlar doirasida<sup>13</sup> tahlil etilgan. Keyinchalik fonopoetika doirasida badiiy matnning ba’zi fonetik xususiyatlari fonetik uslubiy figuralar sifatida<sup>14</sup> va fonopoetik vositalar fonografik uslubiy vositalar sifatida<sup>15</sup> ham tadqiq etilgan.

Jumladan, muallif she’riy asarlari tilida unli tovushlarning cho‘zilishi, ya’ni ularning birdan ortiq yozilishi orqali belgining ortiqchiligi ifodalanishi aniqlandi:

*“Nelar haqda kuylar chigirtka,  
U ham ishqdan kuyganmi yohud?  
O‘tiribman cho‘mi-i-i-b sukutga,  
Aytolmasdan dardim men noshud”* (Saylanma. B.22).

<sup>12</sup> Ўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006. Б.27.

<sup>13</sup> Артюшков А. Стиховедение. Качественная фоника русского стиха. – М., 1927; Григорьев В.П. Поэтика слова – М.: Наука, 1979; Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. – М., 1981; Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983; Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983; Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985; Голуб И.Б. Стилистика современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1986; Дониёров Х., Ўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стиль. – Тошкент: Фан, 1988; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1992; Ҳайдаров А.А. Бадий тасвирнинг фоностилистик воситалари. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2008; Ҳакимов М.Х. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013; Каримов С. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. – Самарқанд, 2016.

<sup>14</sup> Ўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, Фан, 2006; Шодиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърининг лингвопоэтикаси. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2008; Турсунова О.А. Ўзбек бадий нутқининг фонопоэтик тадқиқи (шеърининг асарлар мисолида). Филол. фан. б.фалс. док...дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Турсунова О. Қофиянинг фонопоэтик тадқиқи. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2013, № 4; Турсунова О. Аруз ва бармоқ вазнларининг баъзи фонопоэтик хусусиятлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, № 5; Турсунова О. Қофиянинг фонопоэтик тадқиқи. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2013, № 4; Турсунова О. Тилшуносликда фонопоэтика масаласи. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2016, № 3; Турсунова О. Ўзбек тили фонетик birlikларининг поэтик имкониятлари. Филол. фан. б. фалс. док...дисс. автореф. – Фарғона, 2019.

<sup>15</sup> Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар – Тошкент: Фан, 1996; Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубий асослари. – Бухоро, 2002; Тўланова Д. Бадий матнда фонографик воситаларнинг қўлланиши. – Андижон, 2014; Ҳайдаров А.А. Ёзув билан боғлиқ услубий хусусиятлар. // Илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Бухоро, 2020; Юнусова Х.Р. Визуал поэтик матнларнинг прагма-когнитив тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док...дисс. автореф. – Фарғона, 2022.

Qahramonning dard bilan, chigirtka chirillashidan allalanib, sukutga cho‘mishi tasviri *cho‘mi-i-ib* so‘zida “i” unlisini birdan ortiq yozilishi, cho‘zib o‘qilishi bilan yanada yorqinroq ifodalanmoqda.

Undosh tovushlarning birdan ortiq qo‘llanishi. Tildagi orfoepik me‘yorlarga ko‘ra ham ba‘zi holatlarda bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo‘lgan so‘zlar ekspressivlikni ta‘minlash maqsadida atayin qavatlab talaffuz qilinadi. “So‘zlovchining ichki ruhiyati (siqilish, xursandlik kabilar) va maqsadini kitobxonga «aynan» yetkazish uchun yozuvchilar badiiy matnda bu holatni undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar”<sup>16</sup>. Badiiy matnda bu fonopoetik usul, ya‘ni tovush kuchining balandligi yoki pastligi orqali nafaqat hushohanglikka erishiladi, qolaversa, harakatning davomiyligi yoki bir onda ro‘y berganligi, belgining me‘yordan ortiq yoki kamligi kabi ma‘nolar ham ifodalanishi mumkin.

A.Obidjonning bir misrali, ya‘ni bir qatordangina iborat “Ignabarg she‘rlar”idan birida undosh tovushning birdan ortiq qo‘llanilishi bilan issiqlik belgisining ortiqqligi ifodalangan:

“*Qo‘li is-s-siq, qarashi sovuq*”. Qarashi – nigohining qanchalik sovuqligini ifodalash uchun *sovuq – issiq* so‘zlarini qarshilantirish, uning tarkibidagi *s* harfini uchta yozish orqali ham belgi kuchaytirilmoqda, hamda “*s-s-s*”- ilon tovushiga taqlid bilan bir misradangina iborat bo‘lgan she‘rning g‘oyasiga xizmat qilayotgan obraz yaratilgan.

Badiiy asarlarda qahramonlarning ruhiy holatini to‘la namoyon qilishda mualliflar undosh tovushlarni cho‘zishdan unumli foydalanadilar. Bu holat she‘riy asarlarda nasriy asarlardan ko‘ra kamroq uchraydi. Ammo mahoratli shoirlar o‘z she‘rlarida undoshlarni cho‘zish yordamida kuchli ekspressiv-emotsional holatlarni ifodalaganlar. Masalan, A.Obidjon “Betayin” she‘rini lirik qahramoni tilidan aytilgan “*Ko‘ksingga bosh qo‘yganim zamon, Tuyuladi ham-m-masi yolg‘on*” tarzidagi misralar bilan yakunlagan. Aslida, *hammasi* so‘zi tarkibida imlo qoidasiga ko‘ra *m* tovushi ikkita bo‘lib, tovushni yana bittaga ko‘paytirish va ular orasida chiziqchanning qo‘llanilishi bilan undosh tovush cho‘zilib, lirik qahramonning ruhiy holati aniqroq tasvirlanmoqda. Badiiy tasvirda she‘rning mazmuni, ritmiga mos holda ishlatilgan bu kabi fonopoetik vositalar o‘quvchi hissiyotiga kuchli ta‘sir qiladi. U o‘zini lirik qahramon o‘rniga qo‘yib uning holatiga tushadi.

Undosh tovushlarni qo‘shoqlantirish (geminatsiya). Undoshlarni ikkilantirib qo‘llash orqali badiiy asar qahramoni ruhiyatidagi turli obrazli holatlarni aniq tasvirlashga erishiladi. Ammo so‘zlardagi turli sabablar bilan yonma-yon kelgan undoshlarning barchasi ham lingvopoetik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lmaganidek, duch kelgan tovushni qavatlab qo‘llab ham bo‘lmaydi. Masalan: “*Dilbarim, chekkanim jafolar haqqi, Ibodat qilurman bir umr senga*” (A.Obidjon “Saylanma”, B.9).

Ushbu misoldagi *chekkanim* so‘zidagi *k* tovushi va *haqqi* so‘zidagi *q* tovushining qo‘shoqlanib kelishi geminatsiya hodisasi sanalmaydi. *Chek + gan* –

---

<sup>16</sup> Ўўлдощев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик тахлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006. - Б.27.

*chekkan*, soʻz oʻzagiga qoʻshimcha qoʻshilishi bilan tovush oʻzgarishiga uchrashi natijasida hosil boʻlgan assimilatsiya hodisasi hisoblanadi.

Badiiy matnda geminatsiyaning muhim oʻrin tutishini koʻp kuzatish mumkin. Poetik nutqda (okkazional) uslubiy maqsadni ifodalovchi ohangdorlik bu aynan geminatsiyadir. Soʻz tarkibidagi qoʻsh undoshlilik badiiy nutqda maʼlum poetik vazifani bajarish, maqsadni kuchaytirish, tinglovchiga taʼsir oʻtkazish uchun qoʻllanadi. Masalan: “*Oydin tunda oʻxshar Toshkent oyposhshoga, Kelar olam yulduzlari tomoshshoga*” (Saylanma. B.30).

Ushbu sheʼriy parchada ikki oʻrinda undoshlar qoʻshoqlangan holatni kuzatish mumkin, *oyposhsho* soʻzidagi *sh* tovushining qoʻshoqlanishi, yonma-yon kelishi adabiy tilda normal hodisa boʻlgani uchun sheʼrda qofiyadoshlik, ohangdoshlikdan boshqa fonopoetik vazifa bajarmaydi. *Tomoshsho* soʻzida esa muallif ataylab *sh* tovushini qoʻshoqlantirgan, natijada esa yuqoridagi misradagi soʻzga qofiyadosh, ohangdosh talaffuzli soʻz yaratilgan hamda *tomosha* soʻziga tantanavor mazmun yuklatilgan.

Bobning ikkinchi fasli “Tovush kombinatsiyasining poetik funksiyalari” deb nomlanadi. Tovushlarning notoʻgʻri talaffuz etilishi. Badiiy matnda turli sabablarga koʻra ayrim soʻzlarni, koʻproq hollarda oʻzlashma soʻzlarni ona tili talaffuz qoidalariga boʻysundirib yoki ataylab buzib talaffuz qilish holati kuzatiladi. “Bunday xato soʻzlovchining oʻzlashgan soʻz imlosini toʻgʻri tasavvur qilmasligi, boshqa millatga mansubligi, paronimlarni farqlamaslik natijasida yuzaga keladi, deb izohlash mumkin”<sup>17</sup>.

*“Boʻlib yurib kutubxona “sarbon”i,*

*Goh kinochi, traktorchi, boʻgʻoltir.*

*Konda burgʻilovchi, zavod bogʻboni,*

*Gap pullashni oʻrganganmish u oxir”* (Saylanma. B.25).

“Chalatanish” sheʼridan olingan ushbu parchada *buxgalter* soʻzi muallif tomonidan maqsadli ravishda notoʻgʻri - *boʻgʻoltir* tarzida yozilgan. Mazkur soʻz oʻzbek tiliga oʻzlashmagan ruscha soʻz boʻlib, uning oʻrnida muallif oʻzbek tilidagi “hisobchi” soʻzini qoʻllashi ham mumkin edi. U holatda sheʼr tabiatidagi yumor, sarkazmga putur yetgan va band oxiridagi *gap pullashni oʻrganganmish u oxir* – koʻchimidagi kinoyaga mos tushmasligi, hamda “*oxir*” soʻziga qofiyadosh boʻlmasligi mumkin edi.

Bundan tashqari, tovushlarni notoʻgʻri talaffuz etish usulidan sheʼriy asarlarda lirik qahramon nutqi (bayon)ni individuallashtirish, nutqiy kamchiliklarini koʻrsatish, kulgu qoʻzgʻatish, piching, kinoya maʼnolarini anglatish hamda ifodani ogʻzaki – jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalanilgan.

Tovush almashinishi yoki oʻzgarishi. Tilda maʼlum birlikning fonetik oʻzgarishga uchrashi, yaʼni soʻz va morfema tarkibidagi baʼzi tovushlarning oʻrin almashinuvi yoki oʻzgarishi natijasida hosil qilingan soʻzlar badiiy nutqda poetik vazifa bajarganida ularning orfoepik va orfografik oʻlchovlarga toʻgʻri kelmasligi ahamiyatsiz boʻlib qoladi.

<sup>17</sup> Ёўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006. - Б.28.

“O‘zim o‘nglab desam “hazil”, *mani* quvdi yamon qarg‘ab,  
Hamon tinmas emish *jog‘i*, *jog‘liqliq‘ingdin aynanay”* (Bezgakshamol. B.24).

Ushbu she‘riy parchada ham tovush o‘zgarishlari turlicha poetik ma‘no anglatmoqda. Masalan, *mani*, *jog‘i* so‘zlarida dialektal, ya‘ni shevaga oid fonetik o‘zgarishlar aks etgan bo‘lib ular nutqda mahalliy koloritni saqlaydi. *Aynanay* so‘zi esa nutqda subyektiv bahoni ifodalashi bilan badiiy-estetik vazifa bajaradi. Shuningdek, A.Obidjon she‘rlarida tovush almashishi yoki o‘zgarishi hodisasi tarixiylik, ijtimoiy va mahalliy koloritni tasvirlash, subyektiv baho anglatish, jarangdorlik va tantanali ohangni ifodalash maqsadida qo‘llangan.

Tovush tushirilishi. Badiiy asarlar tilida, jumladan, tarixiy mavzularda yozilgan she‘riy va nasriy asarlar tilida ko‘plab fonetik o‘zgarishlar badiiy matn kontekstida o‘ziga xos fonopoetik vazifa bajarib keladi. She‘riy asarlarda ba‘zan so‘z boshida yoki o‘rtasida unli tovush tushirib qoldiriladi (M: *bo‘lmoq – o‘lmoq, so‘ramoq – so‘rmoq* kabi). Quyidagi misolda ham huddi shunday fonetik hodisa ro‘y bergan:

“*Mard elim –Turon ota*  
*Bo‘lmagay hech vaqt poda.*  
*Dushmanin etgay zada,*  
*Chimrilsa qoshlar birlashib”* (Saylanma. B.23).

Inson jiddiylashgan, g‘azablangan holatida qoshlarining *chim(i)rilishi* – ularning birlashib, qo‘shilib ketishi she‘r g‘oyasiga ko‘ra turkiy tilli ellarning birlashuviga o‘xshatilgan. So‘z tarkibidagi *i* tovushining tushirilishi bilan talaffuz ohangida keskinlikka ham erishilgan.

Tovush orttirilishi. Tovush orttirilishi hodisasi doim ham fonopoetik vosita bo‘la olmaydi. Biroq badiiy matnlarda tovush orttirilishi orqali ekspressivlik hosil qilingan holatlarda garchi bu adabiy til talabiga ko‘ra me‘yorning buzilishi sanalsada ularga fonopoetik vosita sifatida qaralishi lozim. Masalan, so‘z o‘rtasida undosh tovush orttirib talaffuz qilinishi: “*Doshqozonda qovurtib yeb qo‘yguday tikilgay, Nomi o‘tgan ayolga g‘ilay ko‘zi jalanglab”* (Bezgakshamol. B.22).

Ushbu “qovurib-qovurtib” misolidagi tovush orttirilishi adabiy til talaffuz me‘yorlariga to‘g‘ri keladigan fonetik hodisalarga kirmaydi. Muallif “qovurtib” so‘zidagi “t” tovushini orttirish bilan talaffuzdagi keskin ohangga va bu so‘zni “qovurtirib” so‘zi (orttirma nisbatdagi fe‘l)ning talaffuziga yaqinlashtirib ko‘p ma‘nolilikka erishgan.

Bobning uchinchi fasli “Tovush takrorining poetik xususiyatlari” deb nomlangan. Unda assonans, alliteratsiya, qofiyalanish va uni tashkil etuvchi tovush takrorlari fonopoetikaning elementi sifatida tadqiq etilgan.

Alliteratsiya – undosh tovushlar takrori. Alliteratsiya nutqda ohangdorlikni ta‘minlash maqsadidan kelib chiqib, bir tovushni takror qo‘llash san‘ati sifatida baholanadi.<sup>18</sup>

“*Chaqchaqa qiz tamannolanib,*  
*Chiqdi chamanga orolanib”* (Saylanma. B.135).

<sup>18</sup> Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. Б.23-24.

Ushbu misolda “ch” va “q” tovushlarining so‘z boshi va o‘rtasida takrorlanib kelishi bilan poetik ohangdorlikka erishilgan.

*“Lahzalik qo‘shiqmiz aslida,  
Yer azal tiriklar qasdida,  
Ustiga sig‘masak, ostida  
Joy yetar senga ham, menga ham”* (Saylanma. B.29).

Ushbu she‘riy parchada esa z va s tovushlarining (8 o‘rinda), a tovushining (18 o‘rinda) takrorlanib kelishi asosidagi alliteratsiya va assonansni kuzatishimiz mumkin.

Assonans. She‘riyatda uchraydigan “assonans” unli tovushlar takrori bo‘lib “...vokal alliteratsiya deb ham nomlangan”<sup>19</sup>.

*“Bu olamda qolmadi  
Gunohimdan o‘tguchi.  
U – Siz, tashlab ketsam ham,  
Kechirguchi, kutguchi.”*

She‘riy parchadagi u va o‘ tovushlarining takrori assonans hamda k va g tovushlarining takrori – alliteratsiya kabi tovush tovlanishlarini yuzaga keltirib, she‘rga ohangdorlik bag‘ishlamoqda.

Qofiya tarkibidagi tovushlar takrori. Aslida adabiyot nazariyasining tadqiqot obyekti bo‘lgan va she‘riyatga xoslangan qofiya shakllanish xususiyatiga ko‘ra ohangdoshlikka asoslangani uchun ham fonopoetik vosita sifatida o‘rganilishi mumkin. “Qofiya she‘rning tovush tuzilishida, ritmik tarkibida, intonatsiyasida, sintaktik-semantik bog‘lanishida, band tuzilishida muhim vazifani bajaradi, shuning uchun qofiya she‘riy nutqni ohangdor va ta‘sirli qilishga xizmat qiladi, misralarning esda saqlanib qolishini osonlashtiradi.”<sup>20</sup> Muallifning “Topishmoq” she‘ridan olingan parchada:

*“Bolam, nechun mungli o‘zbekning kuyi?  
Gavjumdir ne bois o‘zbekning to‘yi?  
“Alpomish”ni tug‘di ne uchun o‘yi?  
Tagiga yetolsang odam bo‘lasan”* (Saylanma.B.15).

Misralardagi u, o‘ va i tovushlarining cho‘ziq hamda savol ohangiga mos ko‘tarinki talaffuz etilishidagi imkoniyatidan samarali foydalanib, ular ishtirokidagi kuyi, to‘yi, o‘yi kabi qofiyadosh so‘zlarni to‘rt misrali she‘r oxirida takroriy, ketma-ket uch marta qo‘llab, ifodadagi poetik vositaga aylantirilgan.

*“Ingliz otlig‘ bir orolcha tarqatibdur qarang, pidbo‘l,*

*O‘ynar ermish emdi qo‘rqmay Ro‘siyo-la Farang pidbo‘l”* (Bezgakshamol. B.24). Ushbu A.Obidjonning “Yovvoyi g‘azal, raqam 37” hajviy she‘rida she‘riy qatorlardagi qarang va Farang so‘zlari va keyingi qatorlardagi tajang, jang, mazang, arang, garang so‘zlari qofiya tizimini tashkil etgan va o‘zak so‘zlar oxiridagi a tovushi hamda ikki tovushdan iborat ng tovushi raviiy hisoblanadi. Aslida

<sup>19</sup>Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. Б.26.

<sup>20</sup>Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. Б. 261-262.

barmoq vaznida, shaklan g‘azallar kabi qofiyalangan barcha ikki qatorli bandlarning ikkinchi misrasidagi *pidbo‘l* so‘zining radif sifatidagi takrori hamda undan oldin kelgan so‘zlarning qofiyalanishi ifodadagi ravonlikka xizmat qilgan. Ushbu she‘r aruz vaznidagi g‘azallar kabi hijolanmagan va mazmun jihatidan ham hajviy she‘r bo‘lgani holda unga g‘azalning qofiyalanish shakli tanlangani sababli uning musiqiy, ohangdor va jarangdor bo‘lishiga erishilgan.

Tovush takrorlarining barchasi ham u yoki bu ko‘rinishda fonopoetik vazifa bajaradi. Ular she‘riy nutqning ekspressiv imkoniyatlarini ochib berish; ifoda tasviriyliigi, musiqiylik, xushohanglik, jarangdorlik, ovozni kuchaytirish, ta‘kidlash; ifodadagi ravonlik matnning o‘qilish izchilligini ta‘minlash va eslab qolishni osonlashtirish; yuzaga keltirayotgan badiiy-estetik ta‘siri tufayli o‘quvchiga ruhiy oziqlanish va rohatlanish kabi emotsional ta‘sir qilishi she‘riy misollar orqali tahlil etildi.

Tadqiqotning “**Anvar Obidjon she‘riyatida leksik birliklar poetikasi**” deb nomlangan uchinchi bobida A.Obidjonning she‘riy asarlari matnida poetik vazifa bilan namoyon bo‘layotgan leksik birliklar, jumladan, so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari – sinonim, antonim, omonim hamda qo‘llanish doirasi chegaralangan leksik birliklarlar tahlilga tortilgan.

Bobning birinchi fasli “Antonim va sinonimlar poetikasi” deb nomlanadi. A.Obidjon she‘riy asarlarida qahramonlar xarakterini aniq shakllantirish, asar g‘oyasini kuchaytirish uchun asarda o‘rni bilan sinonim, omonim va antonimdan poetik maqsadda foydalangan.

Antonimlar poetikasi. Anvar Obidjon she‘riyati zid ma‘noli leksemalarning poetik aktuallashuvi jihatidan tahlil etilganda muallif ushbu tasvir usullarini mahorat bilan qo‘llaganini ko‘rish mumkin. Masalan:

“...*Do‘stlarim davlatmand bo‘lsinlar doim,*

*Ro‘zg‘orin tebratsin dushmanlarim ham.*

... *Ko‘mmayin do‘stimni o‘rtanib, mahzun,*

*Ko‘msin meni do‘stlar, dushmanlarim ham.*

...*Yaxshilikdan, tangrim, in‘om et sharaf,*

*Yomonlikdan asra ko‘nglimni har dam.*

*Nomimni eslasin do‘stlarim yashnab,*

*Ta‘nador bo‘lmasin dushmanlarim ham”* (Saylanma.B.28).

Ushbu misoldagi ilk ikki misrada *do‘stlarim / dushmanlarim* antonimlari va *davlatmand bo‘lsinlar / ro‘zg‘orin tebratsin* kontekstual antonimlari o‘zaro xiazmatik parallelizm tasvir usuliga ko‘ra zidlantirilgan va bu bilan she‘rning kuchli ta‘sirchanligi va ohangdorligiga erishilgan. She‘rning keyingi misralarida *yaxshilik / yomonlik* leksik antonimlarini inkorli parallelizm tasvir usuliga ko‘ra tagma-tag qarshilantirib qo‘llash orqali kuchli kontrast ifoda yaratilgan.

Sinonimlar poetikasi. A.Obidjon she‘riyatida ma‘nodosh - sinonim so‘zlarga poetik mazmun yuklatilgan holda mahorat bilan qo‘llanganligini ko‘rish mumkin.

“*Bu olamning jumbog‘i ko‘p,*

*Bu olamning so‘rog‘i ko‘p.*

*Bu olamda savol cheksiz,*

*Bu olamda xayol cheksiz” (Saylanma.B.61).*

Ushbu she’rning uchta qatorida “jumboq, so‘roq, savol” sinonimlarini tagmatag, satrlar oxirida esa “ko‘p, cheksiz” sinonimlarini takroran qo‘llash orqali betakror tasvir va ohangdorlikka erishilgan.

Bobning ikkinchi fasli “Shakldosh leksik birliklar poetikasi” deb nomlangan. Shakldosh va o‘zakdosh so‘zlar she’riy asarlar tilida nutq ta’sirchanligini oshiradi. Muallifning “Bezgakshamol” to‘plamidagi tuyuqlar tarkibidagi omonim, omograf va omofonlar lingvopoetik tahlilga tortildi.

*“Ko‘p javrama, xotin, o‘chir uningni,*

*Ash‘or bitay, san xamir qil uningni.*

*Bunda ilhom qiynar, unda –xotinim,*

*Ol, Xudoyim, buningni yo uningni!” (Bezgakshamol.B.69)*

Ushbu misolda tajnisi tom, ya’ni to‘liq shakldosh bo‘lib kelayotgan *un* (masalan, bug‘doy uni)+*ing*, *un*(ovoz)+*ing*, *u* (3-shaxs birlik kishilik olmoshi)+*n*(orttirilgan tovush)+*ing* so‘zlari omoformalardir.

Qolaversa, Anvar Obidjonning she’rlarida antonimlarni yonma-yon – parallel qo‘llash orqali tushuncha, belgi, holat va obrazlar o‘zaro zidlangan. Sinonim so‘z va iboralarni she’riy asarlarda poetik maqsadda qo‘llash orqali muallif o‘z fikr va g‘oyalarining eng nozik holatlarini, o‘z individual nutqining hamma ma’no jilolarini tushunarli va ravshan, ravon va jozibador, shirali va ta’sirchan qilib ifodalash sharafiga ega bo‘lgan. Muallifning so‘zga ustaligi, so‘zning nozik ma’no va shakl qirralari (omonim, omoforma va omograflar) dan unumli foydalanganligini tuyuqlar va boshqa she’rlari misolida ko‘rish mumkin.

Bobning uchinchi fasli “Qo‘llanilishi cheklangan leksik qatlamning poetik xususiyatlari” deb nomlangan. Bobda A.Obidjon she’riyatida o‘rni bilan turli poetik maqsadlarda foydalanilgan varvarizm, o‘zlashma so‘zlar va disfemizm (kakofemizm) lar she’riy matnlar ichida tahlilga tortilgan.

Varvarizmlar badiiy asarlar matnida qo‘llanib, g‘oyaviy-badiiy maqsadni, qahramon xarakterini ochib berishda muhim vazifa bajaradi. A.Obidjon ham o‘z she’riy asarlarida varvarizm va o‘zlashgan so‘zlardan poetik maqsadda foydalanganligini ko‘rish mumkin. Masalan, quyidagi misolda *prasto‘y* (*prostoy* - oddiy) varvarizmini qo‘llash bilan o‘ziga bino qo‘ygan bir go‘zal ayolga oshiq bo‘lgan Gulmatning komik holati ochib berilmoqda. *Xudo, sajda, banda* kabi diniy ma’nodagi so‘zlar orasida qo‘llanilayotgan buzib talaffuz qilinayotgan birgina ruscha *prasto‘y* so‘zi *banda* so‘ziga sifatlovchi bo‘lib kelayotgani bilan kulguga sababchi bo‘lmoqda:

*“Xudo onglarmu u o‘zni husnig‘a qilsalar sajda,*

*Sabr aylay, ketib husni, prasto‘y banda bo‘lg‘uncha”*

(Bezgakshamol.B.9).

Disfemizm (kakofemizm)lar vulgarizmlardan farqli ravishda haqorat, so‘kish va qarg‘ish ma’nolarini bermaydi. Ular turli konnotativ ifodalarni ko‘rsatish bilan kitobxon tasavvurida emotsional-ekspressiv holat va anglashlarni shakllantiradi. Shu o‘rinda kakofemizlar ham adabiy til doirasiga kirmaydigan leksik birlik sifatida

emas, balki ekspressiv-emotsional bo‘yoqqa ega til va nutq birligi sifatida izohlanishi kerak.

A.Obidjonning she‘riy asarlarida, asosan, hajviy lirikasida qo‘llanilgan emotsional-ekspressiv bo‘yoqli leksika tarkibiga kiruvchi kakofemizmlarni ko‘plab uchratish mumkin. Bir sinonimik qatoridagi salbiy bo‘yoqdor, dag‘al so‘zlar kontekstda haqoratlash, kamsitish, qo‘rslik ma‘nolarini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Masalan:

“*Oningdek sullaning aftin umrbod ko‘rmag‘on yaxshi*” (Bezgakshamol.B.6);

“*Hayratni jamlab aftig‘a*” (Bezgakshamol.B.9);

“*Madaniy turxatda bordim baletga*” (Bezgakshamol. B.113).

Keltirilgan misollardagi *aft* va *turxat* leksemalari *yuz, bet* va *ko‘rinish* so‘zlarining sinonimik qatoridagi xunuklik va qo‘pollik ma‘nosi ustun bo‘lgan shakllari bo‘lib, badiiy matnga dag‘al-kako ifoda berish uchun qo‘llangan. Qolaversa, “madaniy turxat” oksyumoroni orqali she‘rda kontrastlik kuchaytirilgan.

A.Obidjon she‘rlarida kakofemizmlar faol qo‘llanilib, mazkur birliklar vositasida muallif qahramonlar nutqini individuallashtirishga erishadi; milliy va ijtimoiy kaloritga urg‘u beradi; komik, satirik obrazlar tasviri orqali ularning ma‘naviy-axloqiy qiyofasi va saviyasini ko‘rsatib beradi; ramziy, allegorik ko‘chimlar hosil qilish yo‘llari bilan o‘zbek tilining badiiylik imkoniyatlarini yuzaga chiqaradigan original shakllarini yaratadi. Tadqiqot olib borish jarayonida shoir ijodida 150 tadan ortiq kakofemizmlar qo‘llanilib, ular she‘riy asarlarning badiiyligini oshirishga xizmat qilganligi aniqlandi. Ularni shartli ravishda quyidagi 6 ta guruhga bo‘lish mumkin: 1) bir sinonimik qatorga kiruvchi dag‘al ma‘noli so‘zlar; 2) epitetga asoslanib badiiylik hosil qilgan kakofemizmlar; 3) o‘xshatishga asoslanib badiiylik hosil qilgan kakofemizmlar; 4) metaforaga asoslanib badiiylik hosil qilgan kakofemizmlar; 5) turg‘un birikma holatidagi kakofemizmlar; 6) millat, irq, tana belgilariga asoslangan kakofemizmlar. Bu guruhlarni ichki kichik guruhlarga bo‘lish mumkin. Bundan tashqari kakofemizmlarning har biri o‘ziga xos fonetik, morfologik, semantik, stilistik xususiyatlarga ega.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, A.Obidjon she‘riyati badiiy vositalarni qo‘llashda o‘zbek tilining boy badiiy-pragmatik imkoniyatlarini ochib bergan.

## XULOSA

1.Lingvopoetika mustaqil tadqiqot yo‘nalishi sifatida ajralib chiqmagan davrlarda unga tegishli masalalar tilshunoslik, adabiyotshunoslik va falsafa fanlari tarkibida o‘rganilgan. Uning tadqiqot obyekti badiiy matnlar bo‘lib, badiiy matnlar shakl va ifoda jihatdan tilshunoslikka, mazmun va badiiylik jihatdan adabiyotshunoslikka, mantiqiylik jihatdan falsafa faniga tegishlidir. Lingvopoetika ana shunday uyg‘unlashgan murakkab masalalar tahlili bilan shug‘ullanadi. U zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik nazariyaga asoslangan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, poetika va lingvistikaga tengdan aloqador bo‘lgan umumfilologik muammolarni o‘rganadi.

2. O‘zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasi yetarlicha ilmiy asoslanmagan. Sohaga aloqador deb sanash mumkin bo‘lgan aksariyat tadqiqotlarda ma‘lum bir

ijodkorning tili va uslubiga oid badiiy tahlillar; asarlarda badiiylikni ta'minlovchi til birliklari, ular vositasida yozuvchi yoki shoir maqsadining ifodalanish holati tadqiq etilgan. Lingvopoetik tadqiqotlarning asl vazifasi badiiy asar tilida muayyan maqsad uchun xizmat qilgan hodisalarni aniqlash va tadqiq etishdan iborat.

3. Lingvopoetika o'ziga xos tamoyillarga ega bo'lib, ular quyidagi yondashuvlar asosida shakllangan: 1) shakl va mazmun birligi asosida yondashuv; 2) makon va zamon birligi asosida yondashuv; 3) umumxalq tili va adabiy til munosabati asosidagi yondashuv; 4) badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida qarashga asoslangan yondashuv; 5) badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash; 6) badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash; 7) badiiy matnda intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy xususiyatlarini aniqlash.

4. Lingvopoetik tadqiqotlar orasida fonopoetika alohida o'rin tutadi. Aytish mumkinki, fonopoetikaning o'rganish obyekti, predmeti, nazariy masalalari haligacha yetarlicha ilmiy asoslanmagan. Fonopoetika badiiy matn shakllanishida muayyan poetik maqsadlarni ifoda etgan fonetik vositalar hamda ular orqali anglashiladigan ekspressiv ma'no munosabatlarini o'rganadi. Fonetik birliklar qo'llanilishi bilan bog'liq alliteratsiya, assonans, tovushga taqlid, qofiya, ritm va shu kabi hodisa va shakllar asosidagi nostandart talaffuz holatlarini tadqiq etadi. Og'zaki nutqdan farqli ravishda yozma matnda hissiy holatlarni ifoda etish nisbatan murakkabdir. Xususan, Anvar Obidjon ayni holatlarni ifoda etishda fonografik belgi va ishoralardan unumli va o'rinli foydalanish orqali o'z individual strategiyasini hamda o'zbek tilining badiiy imkoniyatlarini ochib bergan.

5. Fonopoetik vositalar yozma matnlarda unli va undosh harflarni birdan ortiq yozish; undoshlarni qo'shoqlantirish (geminatsiya); ayrim so'zlarni maqsadli tarzda atayin noto'g'ri yozish; tovushlarning o'rnini almashtirish yoki o'zgartirish; tovush tushirish va tovush orttirish kabi usullar orqali hosil qilinadi. Ular badiiy matnlarda, asosan, lirik qahramon ruhiyatidagi xursand bo'lish, xafa bo'lish, ichki hayajon, yalinish, hayratlanish, rozilik, taajjub, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norozilik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni obrazli tasvirlashda, belgining ortiqligi yoki aksincha, kuchsizligi orqali matn ifodasiga jarangdorlik va tantanavorlik baxsh etish maqsadlarida qo'llaniladi.

6. Anvar Obidjon she'rlaridagi tovush takrorlarining barchasi ham fonopoetik vazifa bajarmaydi. Shu ma'noda tasviriy vositalarning poetik imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi fonopoetik vositalar sifatida alliteratsiya, assonans va qofiyani tashkil etuvchi tovush takrorlari tahlil etildi. Ularning she'riy asarlar tiliga jarangdorlik, xushohanglik bahsh etishi, tovush yoki tovush birikmalarining turli o'rinlarda tizimli takrorlanishi she'riy nutqning ekspressiv imkoniyatlarini yuzaga chiqarishini fonopoetik vosita sifatida tahlil etish mumkin. Alliteratsiya va assonans kabi tasviriy vositalar va qofiyadagi tovush takrorlari badiiyatda qo'llaniladigan muhim fonopoetik vositalardan bo'lib, ular yordamida nutq oqimini tashkil etish jarayonida ifoda tasviriyligi kuchaytiriladi.

7. Leksopoetik usullar deb so'z shakllari orqali badiiylik ifodalanishiga aytiladi. Ular matnda leksik vositalar orqali voqelanadi. Izlanishlarda A.Obidjon she'rlarida qahramonlar xarakterini aniq shakllantirish, asar g'oyasini kuchaytirishda sinonim,

omonim, antonim va boshqa qator leksik-semantik paradigmalariga mansub birliklardan leksopoetik vosita sifatida unumli foydalanilganligi aniqlandi. Antonimlarni bir satrda yonma-yon – parallel tarzda qo‘llash orqali ijodkor tushuncha, belgi, holat hamda obrazlarni poetik unumdorlik asosida o‘zaro zidlash, qiyoslashga erishgan bo‘lsa, sinonimlarni poetik maqsadda qo‘llash orqali nazarda tutilgan fikr va g‘oyalarning nozik qirralarini individual uslubda original tarzda oson tushuniladigan, aniq va ravshan, sodda va ravon, jozibador hamda ta’sirchan etib ifodalashga erishgan.

8. Omonimiya hodisasi nutqni uyg‘un, ohangdor, yoqimli va ta’sirchan qilish bilan birga so‘z va shakllarning birdan ortiq mazmunda tushunilishini ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida matn tuzuvchi hamda uni qabul qiluvchidan til bilimdonligini talab qiladi. A.Obidjon ijodida shakldoshlikning turli ko‘rinishlari (omonim, omoforma, omograf va o‘zakdosh so‘zlar) samarali qo‘llanilgan. Uning ijodida omonimlik munosabatlari asosida bir qancha tuyuqlar hamda okkazional xarakterdagi omoformalar yaratilgan bo‘lib, ular o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yanada boyitgan.

9. A.Obidjon ijodida qo‘llangan leksopoetik vositalar orasida varvarizmlar alohida o‘rin tutadi. Ular orqali ijodkor matndan ko‘zlagan maqsadini amalga oshirish bilan birga tilning emotsional-ekspressiv funksiyalarini to‘laqonli ochib berishga erishgan, varvarizmlar ijodkor asarlarida qahramonlar ichki qiyofasini tasvirlash quroli sifatida yuksak badiiy-tasviriy qimmatga ega.

10. Salbiy ma’no ottenkasiga ega, dag‘al so‘z va iboralar – kakofemizmlar personajlar tilini individuallashtirish, milliy va ijtimoiy kaloritni vujudga keltirish, qahramonlar qiyofasi, ma’naviy-ahloqiy saviyasini tasvirlash, bundan tashqari komik, satirik obraz yaratish, ramziy, allegorik ko‘chimlar hosil qilishda alohida o‘rin tutadi. Xususan, A.Obidjon she’rlarida kakofemizmlar samarali qo‘llanilgan bo‘lib, ijodkor uslubida originallik darajasi ortishiga xizmat qilgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING  
SCIENTIFIC DEGREE DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02  
AT FERGHANA STATE UNIVERSITY**

---

**FERGHANA STATE UNIVERSITY**

**ORTIKOVA NARGIZAKHON YOKUBJONOVNA**

**PHONOLEXOPOETIC FEATURES OF ANVAR OBIDJON'S  
POETRY**

**10.00.01 – Uzbek language**

**ABSTRACT  
of the doctor of philosophy (PhD) dissertation in PHILOLOGY**

**Fergana - 2024**

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered in the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan with the number: B2023.2.PhD/Fil3290

The dissertation has been completed at Ferghana State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of Ferghana State University [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz) and the informational-educational portal "ZiyoNet" ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))

**Scientific supervisor:**

**Khakimov Mukhammad Khojakhonovich**  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**Official opponents:**

**Usmonova Khurinis Sharapovna**  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**Khamroyeva Khulkar Khamralievna**  
Doctor of Philological Sciences (DSc), Docent

**Leading organization:**

**Tashkent State University of Uzbek Language and Literature**

Defense of the dissertation will take place on 27 04 2024, at 11a.m at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Fergana State University (Address: 105, B.Marginoniy Street, Ferghana, 100151. Tel: (+99873) 244-57-82; e-mail: [info@fdu.uz](mailto:info@fdu.uz)).

The dissertation is available in the Information Resource Center of Ferghana State University (registered under № 339. Address: 19, Murabbiylar Str., Ferghana, 100151. Tel: (99873) 244-71-28.

The abstract of the dissertation is distributed on "15" 04, 2024.  
(Mailing report № 4 dated "15" 04 2024).



**Sh.M.Iskandarova**  
Chairman of Scientific Council  
Awarding scientific degree,  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**M.T.Zokirov**  
Secretary of Scientific Council  
Awarding scientific degree,  
Candidate of Philological Sciences, Professor

**A.Mamajonov**  
Chairman of Scientific Seminar

At the scientific Council Awarding scientific degree,  
Doctor of Philological Sciences, Professor

## INTRODUCTION (Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation Annotation)

**The actuality and significance of the dissertation work.** In the study of the expressive function of language in world linguistics, the language of fiction, which reflects the thinking and national spirit of the nation, is widely researched. The task of linguopoetic research should be to identify and research linguistic tools that express artistry and poetics in artistic language. Therefore, for the development of the national language, special attention is paid to the issues of researching the language of unique works created by skilled writers and poets from the point of view of linguistics.

In world linguistics, the field of linguopoetics, one of the anthropocentric directions of linguistics, which includes philosophical, literary and linguistic views, has emerged. The linguopoetic analysis of the work of art allows us to imagine that the language is a reflection of theoretical aspects, social functions and human spirituality. Because linguopoetics, according to its essence, is aimed at embodying the branches of the field of philology and ensuring its integrity. Therefore, in modern linguistics, the study of linguistic units that have a poetic function in the language of fiction is on practical importance.

The works of many scientists have been great in the development of the field of linguopoetics in Uzbek linguistics. In their research work, the language of the artistic work was analyzed from the point of view of its unique methodological, artistic and aesthetic aspects, the author's skill in using words, his individual style, his attitude to the literary language, methods of creating occasionalisms. As the formation of the people as a nation takes place through language, the study of the language of fiction serves for the development of the literary language. The issues like "To fundamentally increase the prestige of the Uzbek language in the social life of our people and at the international level, to educate our growing youth in the spirit of patriotism, loyalty to national traditions and values, to ensure the full introduction of the state language in our country"<sup>21</sup> are making great demands on today's linguistics. On the basis of various poetic evidences, the necessity of scientific and critical analysis and evaluation of the role of linguistic factors in the realization of linguistic factors in today's Uzbek poetry, providing meaningfulness and deep lyricism is always a priority. In particular, the skill of using words of the national poet of Uzbekistan Anvar Obidjon, who has his own place and voice in Uzbek national literature, his unique style of expression, and the linguopoetic tools that provide the artistry have not been researched linguistically so far, which determines the relevance of the topic. After all, through the work of writers and poets, the artistic language is enriched with means of expression specific to the nationality. For the development of the national language, it is an urgent issue to study the language of unique works created by skilled artists from the point of view of linguistics.

---

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5058351>

The given dissertation has been fulfilled according to the requirements of the following laws and regularities as PD-5847 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 8, 2019 “On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030”, PD-5850 dated October 21, 2019 “On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language”, PD-6084 dated October 20, 2020 “Measures for further development of the Uzbek language and improvement of the language policy in our country”, PD-6097 dated October 29, 2020 “On approval of the concept of development of science until 2030”, PD-6108 dated November 6, 2020 “Uzbekistan's new on measures to develop the fields of education and science in the period of development”, PD-60 of January 28, 2022 “Development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026 decrees”; PD-2789 dated February 17, 2017 “On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of scientific research”, PD-2909 dated April 20, 2017 “On measures to further development of the higher education system”, PD-4479 of October 4, 2019 “It is appropriate to widely celebrate the thirtieth anniversary of the adoption of the Law of “The State Language” of the Republic of Uzbekistan”; Decision No. 304 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated May 22, 2017 “On further improvement of the system of post-higher education”.

**The appropriateness of the research to the prior directions of the development of science and technologies.** The research of the thesis was carried out in accordance with the priority of development of science and technology of the Republic: “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and democracy”.

**The scope of study of the problem.** The language of a work of art, the skill of writers and various linguistic factors that ensure the expressiveness of poetic speech, the problem of analyzing the poetic possibilities of language units have long been the focus of researchers. The interpretation of anthropocentric principles in the field of science also expanded the scope of linguopoetic analysis: in the process of studying the linguopoetic nature of the relationship between language→creator→work→addressee, the direction of linguopoetics cooperates with related fields such as linguopragmatics and linguoculturology.

Many studies have been conducted on the theoretical issues of linguopoetics in world linguistics. In particular, in Western and Russian linguistics, scientists such as A.Kholodovich, V.Vinogradov, G.Vinokur, B.Larin, Y.Stepanova, V.Jirmunskiy, D.Shmelov, V.Grigorev, L.Novikov, Z.Khovanskaya, I.Galperin, V.Zadornova, V.Kukharenko, M.Gorelikova, D.Magomedova, N.Shanskiy, A.Lipgart, Y.Yakovleva, N.Kupina, Y.Marinova<sup>22</sup> and Uzbek linguistics and researchers such

---

<sup>22</sup>Холодович А. К вопросу о лингвистическом методе в поэтике. // К борьбе за марксизм в литературной науке. – Л.: Прибой, 1930; Виноградов В.В. О языке художественной литературе. – М., 1956; Винокур Г.О. Филологические исследования: лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1970; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1974; Степанова Ю.С. Основы общего языкознания. – М., 1975;

as Kh.Doniyorov, S.Mirzaev, K.Samadov, I.Kochkortoev, Kh. Abdurakhmonov, N.Makhmudov, B.Yoldoshev, E.Kilichev, B.Umurkulov, I.K.Mirzaev, S.A.Karimov, G.Yakhshieva, M.Yakubbekova, M.Yoldoshev, D.Andaniyozova<sup>23</sup> and others. The theoretical issues of linguopoetics have been studied in the studies of many scientists and researchers such as Kh.Akhmedov, G.Rikhsieva, G.Keldiyorova, G.Mukhammadjonova, D.Shadieva, N.Tolanova, S.Normamatov, G.Jumanazarova, O.Tursunova, M.Kurbonova, M.Abdupattoev, D.Nazarova, T.Butunbaeva<sup>24</sup>, their research on the poetics of artistic works is noteworthy.

In particular, a number of works<sup>25</sup> have been done on the linguopoetic features of Anvar Obidjon's poetry and the poet's ability to use words. The author's poetry

---

